



bugun tashqarida

Maktabga eltuvchi yo'l

Men O'zbekistonda yashayman.
Mening manzilim: Toshkent shahri,
Xorazm ko'chasi, 35-uy, 2-xonadon.



Men esa maktab yaqinida yashayman.
Otam bilan xavfsiz yo'nalishni belgilab, alohida
e'tibor talab qiladigan joylarni muhokama qildik, bu
yo'ldan bir necha marta birga yurib o'tdik.
Men bu yo'lni eslab qolganimdan keyin, bu yo'ldan
o'zim mustaqil yura boshladim.
Yo'lda adashib qolmasligim uchun menda ishonchli
xarita – **yo'nalish varaqasi** bor.



Yo'nalish varaqasi – uydan maktabgacha bo'lgan
xavfsiz yo'l sxemasi.



Men maktabga xavfsiz borish uchun yo'lda o'zimni
to'g'ri tutishni va yo'limda uchraydigan xavf-xatardan
qanday qochish kerakligini bilaman.



Xavfsizlik qoidalarini o'qing, o'rganing va bir-biringizga
aytib bering. Darslikning oxirida berilgan ilovaga qarang.



Jasurning yo'nalish varaqasiga qarang. Uni to'ldirish uchun qanday ma'lumotlar kerak? Sxema bo'yicha Jasur qayerda yashashini aniqlash mumkinmi? Jasur maktabga borishi uchun yo'lni kesib o'tishi kerakmi? U qanday binolar yonidan o'tadi?

Yo'nalish varaqasi




Familiyam *Musayev*

Ismim *Jasur*

195 - maktabning

1- "A" sinf o'quvchisiman



Uy manzilim *Toshkent shahri,*

Ibrohimov kochasi, 4-uy

Otamning telefon nomeri *+998767446062 Bahrom*

Onamning telefon nomeri *+998709451270 Gulnora*



Uydan maktabgacha bo'lgan yo'nalishingizni chizing. Agar qiynalsangiz, ota-onangizdan yordam so'rang. Darslikning oxirida berilgan ilovadan foydalaning.

